



INGLIZ TILIDAN O‘ZLASHGAN QURILISH TERMINLARNING NUTQIY XUSUSIYATLARI

Djumashev Atadjan Ashirbayevich

ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

Djumashev_1976@mail.ru

Annotatsiya: Maqola ingliz tilidan o‘zlashgan qurilish terminlarining nutqiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘zlashtirish jarayonida inglizcha terminlarning o‘zbek tiliga qanday kirib kelgani va bu jarayonning nutqiy o‘zgarishlarga qanday ta’sir ko‘rsatganini tahlil qiladi. Maqolada ingliz tilidan o‘zlashgan qurilish atamaları, ularning fonetik, leksik, grammatik o‘zgarishlari va nutqdagi foydalanish xususiyatlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi atamalarni o‘zlashtirish jarayonining madaniy va tilshunoslik jihatlari, shuningdek, bu atamalarning o‘zbek tilidagi ekvivalentlari bilan solishtirilishi muhim ahamiyatga ega. Maqola qurilish sohasidagi terminologiya va terminlarning tilshunoslik jihatdan o‘zgarishi haqidagi ilmiy qarashlarni kengaytiradi va o‘zbek tilidagi o‘zlashmalarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: qurilish terminologiyasi, qo‘shma so‘z, termin, o‘z qatlam, asos, leksema, tub so‘z, yasama so‘z, abbreviatura

Abstract: The article is devoted to the study of the speech characteristics of construction terms borrowed from the English language. Analyzes how English terms entered the Uzbek language in the process of assimilation and how this process affected speech changes. The article examines in detail the construction terms adopted from the English language, their phonetic, lexical, grammatical changes and features of use in



speech. It is also important to compare the cultural and linguistic aspects of the process of mastering terms in English, as well as the equivalents of these terms in Uzbek. The article expands the scientific views on the linguistic changes of terminology and terms in the field of construction and helps to deepen the understanding of acquisitions in the Uzbek language.

Key words: construction terminology, compound word, term, own layer, basis, lexeme, root word, artificial word, abbreviation

Аннотация: Статья посвящена изучению речевых особенностей конструкции терминов, заимствованных из английского языка. Анализируется, как английские термины вошли в узбекский язык в процессе ассимиляции и как этот процесс повлиял на речевые изменения. В статье подробно рассматриваются конструкции терминов, заимствованных из английского языка, их фонетические, лексические, грамматические изменения и особенности употребления в речи. Также важно сравнить культурно-лингвистические аспекты процесса освоения терминов на английском языке, а также эквивалентов этих терминов на узбекском языке. Статья расширяет научные взгляды на лингвистические изменения терминологии и терминов в сфере строительства и способствует углублению понимания заимствований в узбекском языке.

Ключевые слова: строительная терминология, сложное слово, термин, собственный слой, основа, лексема, корневое слово, искусственное слово, аббревиатура.

Qurilish terminologiyasi boshqa terminosistemalar kabi turli davrlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoit tufayli murakkab rivojlanish bosqichlarini, lisoniy o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Mazkur soha terminosistemi tarkibi ham uzoq asrlar davomida o'zbek tili ichki imkoniyatlari va boshqa tillarning o'ziga xos ta'siri natijasida



hozirgi ko'rinishga kelgan.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tili qurilish terminologiyasining sinxron holatini quyidagi ikki qatlama bo'lib o'rganish mumkin:

1. Qurilish terminologiyasining o'zlashma qatlami;
2. Qurilish terminologiyasining o'z qatlami.

Genetik jihatdan o'zlashma qatlam terminlari quyidagicha tahlil qilish mumkin:

O'zlashma terminlar:

1. Tub leksema shaklidagi o'zlashma terminlar.
2. Yasama leksema shaklidagi o'zlashma terminlar.

O'tgan asr oxirlarida Angliya va AQSHda qurilish sohasi faol rivojlangan bo'lsa-da, unga oid terminlarning aksariyati inglizcha emas. Ingliz qurilish terminologiyasining asosiy qismini yunon, lotin va fransuz tilidagi so'zlar tashkil etadi.

O'z qatlam terminlari:

1. Asosi rus tilidan o'zlashgan terminlar.
2. Asosi arabiy-forsiy terminlar.
3. Asosi turkiy terminlar.

Ko'rinadiki, o'zbek tilida qurilish sohasida qo'llanilayotgan ko'pgina terminlar boshqa tillardan o'zlashgan bo'lib, mavjud terminlarning aksariyati, asosan, kalkalash asosida hosil qilingan.

Dunyo tillarining hozirgi holatida gegemon tillarning milliy tillarga kuchli ta'siri kuzatilmoqda. Bu mazkur tillarning jahon siyosati, iqtisodiyoti, madaniy hayotida tutgan o'rni bilan belgilanmoqda. Xususan, hozirda ingliz tilining dunyo bo'ylab tarqalish chastotasi o'ta yuqori bo'lib turibdi. Istaymizmi-yo'qmi boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tiliga ingliz tilidan behisob leksik birliklar o'zlashmoqda. Bu jarayon ilm-fan, texnikaning aks-sadosi sifatida qurilish terminologiyasida kuchli kechmoqda.

Internet saytlarida kelajakda qurilish-ta'mirlash ishlariga oid kasb egalarini ifodalovchi prorab-votcher, aqlli uy loyihachisi, AT muhandis, BIM (Building Information Modeling) menejeri, SD printer bo'yicha mutaxassis, qurilishni modernizatsiyalash bo'yicha mutaxassis, qurilish energiyasi bo'yicha arxitektor, raqamli qurilish



boshqaruvchisi kabi terminlar keltirilgan. Mazkur terminlar xorij tajribasi natijasida paydo bo'ldi va sekin-asta o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Ta'kidlash lozimki, ularning barchasini termin sifatida qabul qilish noo'rin bo'lar.

Professor H.Dadaboyevning ta'kidlashicha: “Termin so'zi interpretatsiyasining substansional, funksional, dervatsion, semantik va pragmatik prinsiplari e'tirof etilmoqda. Substansional nuqtayi nazar vakillariga ko'ra termin maxsus so'z yoki so'z birikmasi bo'lib, boshqa nominativ birliklarga nisbatan bir ma'noliligi, aniqligi, sistemliligi, kontekstdan xoliligi va emotsional jihatdan neytralligi bilan ajralib turadi. Funksional nuqtayi nazarga binoan terminlar maxsus so'z emas, balki maxsus funksiyaga ega so'zlardir; terminning o'rni (roli)ni istalgan so'z bosishi, o'ynashi mumkin. Derivatsion nuqtayi nazar terminlarning yasaliş jarayonlari bilan chambarchas bog'langan. Termin nafaqat oddiy so'zning varianti, shuningdek, yangi, o'ziga xos spetsifik belgilarga ega maxsus yasalgan birlik sifatida ham tan olinadi. Yangi terminlarning yuzaga chiqish sabablarini ifodalash ehtiyoji bilan baholanadi. Terminga muayyan talablar qo'yiladi, ushbu jihat uni umumtil va lahja hamda shevalardagi oddiy so'zlardan ajratib turadi.

Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o'zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o'simlik turlarining har biriga alohida nom qo'yishga urinish befoйда, buning imkoni ham yo'q.

Bu fikrga to'la qo'shilish mumkin. Boisi qurilish terminologiyasiga ingliz tilidan o'zlashayotgan leksik birliklarda aynan mana shu jihatlar ko'zga tashlanadi. Ularning ma'lum bir qismi termin talablarga javob beradi, muayyan leksik birliklar esa nomenklatura birliklari sanaladi.

Qurilish bilan bog'liq terminologik tizimda ingliz tilidan o'zlashgan terminlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:



1. Asos holatda o‘zlashgan terminlar: anker, brizol, greyfer, groxot, vites, izol, zenker, interer, keramika, kesson, klupp, koper, lebedka, mastika, oboi, otvertka, pergamin, ruberoid, tender, tol, frita va h.k.

Mazkur terminlarning har biri muayyan ma’noga ega. Masalan:

Albit – sopol xom-ashyo.

Anfilado – o‘zaro bog‘liq xonalar.

Brizol – quvurlarni himoyalovchi o‘rama.

Greyfer – changakli ko‘ratgich.

Groxot – g‘alvir mashina.

Zenker – ko‘ptig‘li qirquvchi asbob.

Interer – ichki ko‘rinish.

Klupp – rezba qirqadigan asbob.

Koper – qoziq qoquvchi qurilma.

Lebedka – chig‘ir, yuk ko‘ragich.

Mastika – mum, saqich.

Oboi – gulqog‘oz.

Vitraj – bu deraza yoki eshikka yoki mustaqil ramkaga o‘rnatilgan, (ko‘p hollarda, ko‘p rangli) shisha bo‘laklaridan yasalgan dekorativ kompozitsiya.

Dekor – binolar, inshootlar yoki mahsulotlarning jabhalari va intererlarini bezash tizimi. Bir rangli va ko‘p rangli rasm, badiiy rasm, teksturali sirt bilan ishlov berish, turli materiallardan yasalgan bezaklar, haykaltaroshlik tasvirlari.

Endova – tom ikki yonbag‘irining artikulyatsiyasi, kiruvchi burchakni hosil qiluvchi qismi.



Panjur – o‘q bo‘ylab aylanadigan gorizontal yoki vertikal shaffof bo‘lmagan plastmassa yoki metall plitalardan iborat yorug‘likdan himoya qiluvchi pardalar.

Interer – binoning ichki qismining arxitekturasini.

Laminat – PVX qatroniga asoslangan qatlamli plastmassa.

Eras – me'moriy jihatdan yaratilgan ochiq yoki yarim ochiq maydon, ko‘pincha binoga ulashgan.

Frita – kafelga rang beruvchi xom-ashyo.

Keltirilgan terminlar deyarli ingliz tili yoki ingliz tili orqali boshqa tillardan o‘zlashgan va asos tillarda muayyan ma’nolarga ega bo‘ladi.

Masalan:

Anker (nemischa: ankor – langar so‘zidan) – termini ikki xil ma’noda qo‘llanadi:

1. Soat mexanizmin bir maromda ishlab turishini ta'minlab turuvchi detal. 2. Qurilish materiallarini asoslarga mutahkamlash uchun ishlatiladigan mexanik yoki kimyoviy vosita.

O‘tkir ankerlar, mayda ankerlar, boshqariladigan ankerlar, ankraj murvatli ankerlar, shift ankerlari farqlanadi.

O‘zbek tiliga anker zulfin deb tarjima qilingan. Naysimon zulfin (gilzoviy anker), poydevor zulfini (anker bashmaka), ponasimon zulfin (klinoviy anker), ilgakli zulfin (anker kryuchok), payvand zulfin (anker na svarke) kabi turlari keltirilgan. Aynan zulfin deb o‘g‘irish uslubiy g‘alizga o‘xshaydi.

Armatura (lotincha: armatura – qurollanish, anjom so‘zidan) – betonning cho‘zilishga mustahkamligini oshirish, devorlarning mustahkamligini ta'minlash uchun uchun mo‘ljallangan bino va inshootlarning tarkibiy qismi.

Mastika (yunoncha: mastika – yelim so‘zidan) – qurilishda germetizatsiya jarayonlarida qo‘llanadigan pasta.



Tol – (fransuzcha tôle – lavha, temir soʻzidan) tom yopish kartonini koʻmir yoki slanets smola mahsulotlari bilan qoʻshish natijasida olinadigan tom yopish va gidroizolyatsiya materialidir.

2. Qoʻshma soʻz holatida oʻzlashgan terminlar. Mazkur guruhga kiruvchi terminlar ikki xil koʻrinishda uchraydi. a) ikki asosdan hosil qilingan terminlar: arkbutan, armobeton, armoblok, armokarkas, armopanel, armoplita, armotsement, asboplita, asbofanera, asboshifer, branmauer, butabeton, gazobeton, gazoblok, gipsokarton, degtobeton, zoloshlak, penablok, penoplast, serobeton, serobitum, azbozurit va h.k.; b) uch asosdan hosil qilingan terminlar: armopenobeton, armopenoslikat, gipsoshlakobeton va h.k.

Ikki asosdan hosil qilingan terminlar quyidagi maʼnolarda qoʻllanadi:

Arkbutan – tashqi ustunga oʻrnatiladigan ravoq.

Antiseptik – organik kelib chiqadigan qurilish materiallarini biologik shikastlanishdan (bakteriyalar, zamburugʻlar taʼsiridan) himoya qilish uchun ishlatiladigan kimyoviy modda.

Brandmauer – bino qismlarini ajratib turuvchi yongʻinga chidamli toʻsiq devor.

Butabeton – yirik toshli beton.

Gazobeton – gʻovak beton.

Gipsobeton – ganchli beton.

Dektobeton – qatronli beton.

Penobeton – koʻpikli beton.

Penoplast – sergʻovak plastmassa.

Termozibeton – issiqlikka chidamli beton.

Tol – qoraqogʻoz, mumlangan qogʻoz.



Travertin – g‘ovak ohaktosh.

Druvall – ikki qatlamli qurilish qog‘ozi (karton) va gips yadrosidan iborat varaq.

Espagnoletka – deraza va eshiklarni qulflash uchun mandal. Qoida tariqasida, u metall dan yasalgan. Deraza (eshik) armatura turlaridan biri.

Gipsoshlakobeton – ganchli g‘ova beton.

Qo‘shma terminlar ham muayyan so‘zlarning birikishidan tashkil topgan va asos tillarda muayyan ma’nolarni bildiradi.

Masalan:

Avtoklav (yunoncha auto – o‘zi + lotincha clavis– qulf) – atmosferadan yuqori bosim ostida isitishni talab qiladigan turli operatsiyalar uchun mo‘ljallangan apparat.

Shuningdek, -siya qo‘shimchasi bilan asos tilda yasali b, o‘zbek tiliga o‘tgan gidroizolyatsiya (suv o‘tkazmaydigan qilish), germetizatsiya (zichlab berkitish, zichlash), teploizolyatsiya (issiqlik o‘tkazmaydigan qilish) kabi terminlar ham mavjud.

3. Birikma holatdagi o‘zlashgan terminlar: kompozit armatura, polisterol plita, keramik mozaika, shlakli mozaika va h.k.

Ular o‘z ichida quyidagi guruhlar ga ajraladi:

a) inglizcha+inglizcha asos bilan hosil qilingan terminlar: asbestsiz shifer, gidroizolyatsiya, gossipol smola, sement klinkerlari, kompozit shifer va h.k.

b) inglizcha-o‘zbekcha ikki asosli terminlar: bentolit material, dekorativ buyumlar, keramik bo‘yoq, plastik qolip, xameleon g‘isht va h.k.

s) o‘zbekcha+inglizcha ikki asosli terminlar: maishiy lineli um, rangli mozaika, shishali cherepitsa va h.k.

d) inglizcha komponentli uch va undan ortiq asosli terminlar: gidroizolyatsiya materaillari, bazalli izolyatsiya materiallari, mineralli izolyatsiya materilallari, texnogen chiqindilar, poliviniilxl rid buyumlar, kvarsvinilli pol qoplamasi, o‘z-o‘zini itiklaydigan



egiluvchan beton, ko'pikli devor qoplamasi, manzaralari harakatlanadigan pol qoplamalari va h.k.

e) abbreviatura usulida yasalgan terminlar: geoto'r, geopanjara, geokompozit, MDF plitalari, MDF eshiklari, MDF romlari va h.k.

Juft shakldagi: sanitar-texnik buyumlar, prorab-votcher va h.k.

Alohida ta'kidlash lozimki, qurilish terminologiyasida ingliz tilidan o'tgan nomenklatura nomlari ham ko'plab uchraydi. Ularga “AMINA MEMOR SERVIS” XK, “IZZAT STROY SERVIS” MChJ, “MUSOBEK QURILISH SERVIS” MChJ, “MURAT BUILDING”, “DO'RMON LUXURY”, “DREAM WALL” MChJ, “ELIT MASTER” MChJ, “ELITE-BUILDING LUX” MChJ, “ENGINEERING GROUP” MChJ, “ETERNAL CONSTRUCTION” MChJ, “FARTUNA RIVOJ” MChJ, “FERROCORP” MChJ va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Bular termin sanalmaydi, termin talablariga javob bermaydi, lekin qurilish sohasida qo'llanayotgan faol atamalar sifatida qayd etiladi.

Qurilishga oid terminlar tarkibida servis, building, golden, house, elit, group, mall kabi o'zbek tiliga o'zlashmagan inglizcha so'zlarni qo'llash amaliyoti ham kuchli. Bunga ham qo'shilib bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek tilida qurilish sohasiga oid yangi terminlarni yaratishda so'z yasashning morfologik, semantik va sintaktik usullari bilan bir qatorda xorijiy tillarga taalluqli tushunchalarni o'z ichki imkoniyatlari asosida ifodalash usuli, ya'ni kalkalash usuli yetakchilik qilmoqda. L.Blumfild kalkalarni –...chet so'zlar tarjimasini yoki o'zga so'zlar bilan ifodalangan mazmunni o'z tilida ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlarning tanlanishi¹, – deb yozadi. A.Reformatskiy esa so'z o'zlashtirishning kalkalash usuli haqida fikr yuritarkan: –Kalkalar chet tilidagi so'zning qismma-qism tarjimasini yoki tarjima qilingan elementlarning mexanik ravishda o'zaro qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan ibora, so'z. Shu tarzda kalka usulini qo'llaganda elementlarning kombinatsiyasi

¹ Блумфилд Л. Язык. – М.: 1968. 499-502 с.



o'zlashtiriladi, elementlarning o'zlari esa o'zga tildagi emas, balki o'z til materiali bo'lib xizmat qiladi², – deydi. Ko'rinadiki, bu usul yordamida boshqa tillardan kirib kelayotgan o'zlashma terminlarning bir qismi o'zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima qilinadi. Shu sababli bu usul yangi tushunchalarni atashda o'zining qulayligi va mahsuldorligi bilan ajralib turadi.

O'zbek tili qurilish terminologiyasi tarkibida o'zlashtirma so'zlarning ko'p bo'lishi bevosita fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, bunday o'zlashmalar globallashuv jarayonida turli millat vakillarining o'zaro aloqalarining rivojlanishi natijasida vujudga keladi. I.Ivanov o'zlashtirishni 3 turga bo'lib o'rganadi:

1. Kalkalar;
2. Etimologik kalkalar;
3. Semantik kalkalar³.

I.Zograf o'zlashtirishning 3 asosiy turi sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi.

1. To'g'ridan to'g'ri leksik o'zlashmalar;
2. Kalkalash usuli;
3. Semantik o'zlashmalar⁴.

V.Gorelov o'zlashtirishning kalka usulini semantik o'zlashtirish, deb nomlagan va bu usul yordamida yangi so'zlar hosil bo'lishini ta'kidlagan. U kalkalarni ikki turga bo'lib o'rganadi:

- 1) struktural kalka;
- 2) etimologik kalka⁵.

Xorijiy tillardan o'zlashgan qurilish terminlarini muqobil variantlarini topish va ularni o'zbek tili terminologiyasiga kiritish shu soha olimlaridan bilimdonlikni va ijodkorlikni talab qiladi. Shuningdek, bir tildan ikkinchi tilga o'zlashayotgan terminlarning mukammal variantlarini tanlashda tilshunoslar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi. Masalan, quyida keltirilgan ba'zi qurilishterminlari bevosita

² Реформатский А. Введение в языкознание. – М., 1955. – С.116.

³ Иванов И.И. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: Наука, 1978. – С.118.

⁴ Зограф И. Монголо-китайская интерференция (язык монгольской канцелярии в Китае). – М.: «Наука», 1984. – С. 38.

⁵ Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М., 1978. – С.114.



o'zining aniq muqobiliga ega bo'lib, ularni bimalol o'zbek tili qurilish terminologiyasiga kiritish mumkin: aviakompaniya, aeros'yomka, layner, liniya, svyaz, charter, priyomnik, radiouzel va hokazo.

Ammo barcha o'zlashma terminlarni o'zbekchalashtirish har doim ham kerakli natijalarni beravermaydi. Ba'zi o'zbekcha terminlarning muqobili ikki va undan ortiq bo'lgan leksik birliklarga – so'z birikmalariga teng kelishi mumkin. Bunday paytda qulaylik, soddalik, ommalashuvchanlik tamoyillaridan kelib chiqib ish ko'rish kerak. Bu o'rinda olim Nizom Komil fikrlari diqqatga sazovor: – Jamiyat rivoji, fan va texnika taraqqiyoti tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yangi-yangi atamalar paydo bo'ladi va ular dunyodagi barcha tillar bag'riga singib ketadi. Bu tabiiy hol. Bundan cho'chimaslik kerak. Endi muqobil so'zlar masalasiga kelsak, boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan barcha atamalarning muqobili ona tilimizda bor, deyish ham to'g'ri emas. Mana, masalan, velosiped, mashina, poyezd, samolyot degan atamalarning muqobili bormi? Yo'q. Chunki men yuqorida nomlarini tilga olgan narsalar ilgari bizda bo'lmagan. Demak, bu atamalarning muqobili bo'lishi ham mumkin emas. Ularni allaqanday sun'iy nomlar bilan atash – g'irt nodonlik. Bu so'zlar allaqachon tilimizga o'rnashib bo'lgan va beminnat xizmat qilib kelmoqda. Esimda, 1989-yili o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan tilni butunlay tozalash tarafdorlari ham paydo bo'ldi. Aeroportni tayyoragoh, samolyotni tayyora, uchoq, institutni oliygoh, ilmiy-tadqiqot muassasalarini ilmgoh deyish rasm bo'ldi. Ammo bu hol uzoqqa cho'zilmadi. Tilimiz bu atamalarni hazm qilolmadi. Tashqaridan turib tilga zo'ravonlik qilish befoydaligiga o'shanda amin bo'lganman⁶. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda qurilish terminologiyasidagi aeroport terminini tayyoragoh yoki samolyotgoh, samolyot terminini tayyora, uzi uchar, uchoq kabi tarjima qilish yoxud muqobilini keltirish o'zini oqlamaydi deb o'ylaymiz. Sababi har qanday terminlarni tarjima qilishlik g'alizlikni keltirib chiqaradi.

Terminlar tanlashda globallashuv va fan-texnika integratsiyalari talablaridan kelib chiqqan holda yondashish lozim. Bu borada tilshunos olim N. Mahmudov fikrlariga tayanish o'rinli: – Zamonaviy ilg'or fan, texnika, texnologiyalar bilan bog'liq

⁶ “Ёшлик” журналы, 2016 йил, 1-сон.



tushunchalarni ifodalovchi chet soʻzlar, xususan, ingliz (amerika varianti) tili soʻzlari juda koʻplab tillarga kirib bormoqda. Hatto boshqa tillar taʼsiriga oʻta hushyorlik bilan qaraydigan bugungi yaponlar tilidagi kompyuter texnikasiga oid terminologiyaning naqd 99 foizi ingliz tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlardir”⁷.

Koʻrinadiki, qurilish terminosistemasidagi mavjud terminlarning aksariyati internatsional terminlar boʻlib, ular oʻzbek tiliga, asosan, kalkalash usuli orqali kirib kelmoqda va baʼzi hollarda kalkalash usuli terminlardagi noaniqliklarning yuzaga kelishiga sabab boʻlmoqda. Bu esa oʻzbek tilida qurilish sohasiga oid terminologik sistemani tartibga solishni, mazkur sohaga oid mukammal lugʻatlar yaratishni taqozo etmoqda.

Umuman olganda, bugun qurilish sohasida inglizcha terminlarning oʻrni katta va ular oʻzbek tilida qurilish bilan bogʻliq terminologik qatlamni boyishida muhim manbalardan biri boʻlib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidan oʻzlashgan qurilish terminlari nafaqat tilni rivojlantirishda, balki qurilish sohasida mutaxassislarning tushunishni osonlashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu jarayon tilning rivojlanishiga yangi omillar kiritadi va oʻzbek tilining global kommunikatsiya tizimiga integratsiyasini taʼminlaydi. Ingliz tilidan oʻzlashgan qurilish terminlarining nutqiy xususiyatlari, ularning fonetik, grammatik, leksik va stilistik jihatlari orqali oʻzbek tilining rivojlanishiga katta hissa qoʻshmoqda.

⁷ Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва соъз оъзлаштириш //Оъзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Блумфилд Л. Язык. – М.: 1968. 499-502 с. Реформатский А. Введение в языкознание. – М., 1955. – С.116.
2. Иванов И.И. Терминология и заимствования в современном китайском языке. – М.: Наука, 1978. – С.118.
3. Зограф И. Монголко-китайская интерференция (язык монгольской канцелярии в Китае). – М.: «Наука», 1984. – С. 38.
4. Горелов В.И. Лексикология китайского языка. – М., 1978. – С.114.
5. “Ёшлик” журналы, 2016 йил, 1-сон
6. Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва соъз оъзлаштириш //Оъзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015. – № 3. – Б. 8.